

ZAMONAVIY TA'LIMDA XUSUSIY MAKTABLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Norova Nargiza Xalmamat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

E-mail: norovanargiza592@gmail.com

Annotatsiya. ushbu maqolada hozirgi kunda ta'limning rivojlanishi natijasida bilim berish maskanlarining xususiylashtirish, ularning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari haqida yoritilgan. Bundan tashqari xorijiy mamlakatlarning xususiy maktablari bilan solishtirma mulohazalar olib borilgan.

Kalit so'zlar: *xususiy maktab, tendensiya, kelajak, dars, xorijiy maktablar, OECD, xorijiy tadqiqotlar, xususiy maktablarning afzalliklari.*

DEVELOPMENT TENDENCIES AND PROSPECTS OF PRIVATE SCHOOLS IN MODERN EDUCATION

Norova Nargiza Khalmamat kizi

Nukus State Pedagogical Institute

E-mail: norovanargiza592@gmail.com

Abstract. this article covers the privatization of knowledge institutions, their development trends and prospects as a result of the current development of Education. In addition, comparative considerations were made with private schools of foreign countries.

Keywords: *advantages of private school, trend, future, lesson, foreign schools, OECD, foreign studies, advantages of private schools.*

Global ta'lim tizimida ko'plab amaliy va nazariy ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi yosh avlod kelajagi uchun poydevordir. Bu ishlarning saralaridan biri – xususiy maktablardir. Xususiy maktablarning ochilishi ta'limning jadallashishiga olib kelganligi hech kimga sir emas. Yurtimizda ham buning natijasini ko'rishimiz mumkin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.06.2019 yildagi 526-sonli qarorida iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish; tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish [1] kabi muhim maqsad va vazifalar belgilab berilgan

Hozirda ota-onalar nima uchun iloji boricha farzandlarini xususiy ta'lim dargohlariga berishga harakat qilyapdi? Xususiy maktablarning afzalliklarini ko'rib chiqamiz. Shiddat bilan rivojlanayotgan bu zamonda ota-onalar farzandlarini barcha zarur bilimlarga ega bo'lishini istashadi va xususiy ta'limni tanlashadi. Xususiy ta'limdagi barcha sharoitlar uning moliyaviy sarmoyasini oqlaydi. Xususiy maktablarda eng so'g'gi ilg'or texnologiyalar, sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar, chuqurlashtirilgan xorijiy tillarni o'rgatish, xalqaro dasturlar, yuqori malakali va xorijiy o'qituvchilar, har bitta o'quvchining iste'dodini ochib beruvchi individual rejalar, noodatiy dasr jarayonlari va sinfxonalar asosida juda qiziqarli va murakkab bo'lgan bilimlar taqdim etilib boriladi. Sinfdan o'quvchilar soni davlat maktablariga qaraganda ancha kamroq bu o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda ko'proq ishlashga, berayotgan bilimlarini o'zlashtirish sifatini yuqori bo'lishiga olib keladi. Xususiy maktablarda kuchli intizom va o'zaro hurmatni yuqori darajada ushlab turish juda muhim sanalanadi, negaki bu ularning kelajakdagi kareyerasini belgilab beradi. Bu barchani xavfli harakatlardan saqlaydi.

O'quvchilarning kamligi ular ustidan nazoratning ko'proq bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu boradagi xavfsizlik o'ta-onalarni va o'quvchilarni qoniqtishi ayni muddao. O'quvchilar o'zlashtirgan intizom kelajakda boshqa ta'lim bosqichida ham o'z samarasini beradi. tartibga amal qilgan bola o'z vazifalarini vaqtida bajarishga o'rganadi. Ta'lim sifati, dars davomati o'z o'zidan yaxshilanib boradi. Umuman olganda, xususiy boshqariladigan maktablar ko'proq mustaqillikka, yaxshi resurslarga ega, maktab iqlimi yaxshiroq bo'ladi. Davlat tomonidan boshqariladigan maktablar direktorlariga qaraganda o'quv dasturlari va baholashda xususiy maktab imkoniyati ko'proq. OECDning 16 ta davlatida va 4 ta hamkor mamlakatlar va iqtisodlarda xususiy boshqariladigan maktablarning o'quvchilari boshqa o'quvchilarga qaraganda yaxshiroq intizomli muhitga ega ekanligi ta'kidlangan [2] .

Xususiy maktablarda axborot olish manbalari juda keng. Ularga xorijiy tillar chuqurlashtirib o'rgatiladi. Shu bois axborot resurs markazlari o'zimizning nodir va foydali kitoblardan tashqari xorijiy kitoblar bilan boyitilgan. Sifatli bo'lgan manbalar va ko'plab sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning alohida iste'dodlarni va qiziqishlarini bemalol qondira oladi. Xususiy maktablarda sinfdan tashqari ishlarga katta e'tibor qaratilgan. Negaki, ular dars jarayonida olingan ta'limni mustahkamlash va amaliy qo'llash imkoniyatini beradi. San'at, musiqa va sport sinfdan tashqari ishlarning asosiysi hisoblanadi. O'quvchilar o'z qiziqishi va iqtidorlaridan kelib chiqib bu tarmoqlarni kerakli yo'nalishlarini, to'garaklarni tanlaydilar. Bu o'quvchilarni olayotgan bilimlarini rag'batlantirishga yordam beradi. San'at o'quvchilarda ko'proq qiziqish, bilimlarni o'zlashtirishga moyillikni oshiradi, musiqa ularni ilhomlatiribgina qolmay nozik didni, hotirjamlikni tarbiyalaydi, kelajakdagi turli qarama qarshiliklarni, stresslarni yengib o'tishga tayyorlardi. Sport bilan doimo hamnafas bo'lish, ularning sog'liklari garovidir. Xususiy maktablarda ovqatlanish ratsioniga ham alohida e'tibor qaratishadi. Taomlar sifatli, kaloriyaga boy va mavsumiy shaklda taqdim etiladi. Parhezga amal qilinadi. Turli kasalliklarni oldini olish maqsadida tibbiy tekshiruvlar olib boriladi, psixologlar bilan suhbatlar uyushtiriladi, bularning barchasi o'quvchilarni kelajakda sog'lom, aqli, bilimli va raqobatbardosh qilib tarbiyalanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Xususiy maktablar shu kabi jihatlari bilan boshqa maktablardan farq qiladi. Ular tarbiya berayotgan o'quvchilarini har tomonlama mukammal inson qilib yetishtirishda bor imkoniyatlardan foydalanishadi. Bu o'quvchilarga kiritilayotgan investitsiya o'zini ,albatta, oqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-4387224>
2. Public and Private Schools: How Management and Funding Relate to their Socio-economic Profile, OECD Publishing 2012. 19-p.. <http://dx.doi.org/10.1787/9789264175006-en>.

